

“Trastbank” xususiy aksiyadorlik banki Boshqaruvi 2021
yil 1 apreldagi 58-son Qarorining
1-ilovasi

Chet el valyutasini sotib olish va sotish bo‘yicha xizmatlarni ko‘rsatish uchun ommaviy oferta

Ushbu hujjat “Trastbank” xususiy aksiyadorlik bankining (bundan buyon “Bank” deb nomlanadi) rasmiy taklifi (ommaviy ofertasi) hisoblanadi hamda Bank mijozlari - yuridik shaxslar/yakka tartibdagi tadbirkorlarga (bundan buyon “Mijoz” deb nomlanadi) chet el valyutasini sotib olish va sotish bo‘yicha xizmatlarni taqdim etishda ularga xizmatlar ko‘rsatishning standart shartlari va tartibini belgilab beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 369-moddasi 2-bandiga muvofiq chet el valyutasini sotib olish va sotish uchun Arizalarni taqdim etishda quyida bayon qilingan shartlarni qabul qilgan va shartnomaga qo‘shilgan taqdirda, ushbu ommaviy ofertaning akseptini amalga oshiruvchi Mijoz Shartnomaning Tomoniga (O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 370-moddasi 4-qismiga muvofiq oferta aksepti ofertada bayon qilingan shartlarda shartnomani tuzishga teng), Bank va Mijoz birgalikda esa shartnoma Tomonlariga aylanadi.

1. TERMINOLOGIYA

1.1. **Oferta** - ushbu “Chet el valyutasini sotib olish va sotish bo‘yicha xizmatlarni ko‘rsatish uchun ommaviy oferta” hujjati.

1.2. **Chet el valyutasini sotib olish va sotish bo‘yicha xizmatlarni ko‘rsatish uchun ommaviy oferta** - Bank va Mijoz o‘rtasidagi chet el valyutasini sotib olish va sotish bo‘yicha xizmatlarni ko‘rsatish uchun ofertani akseptlash yo‘li bilan tuziladigan shartnoma.

1.3. **Mijoz** - ommaviy ofertaning akseptini amalga oshirgan va shu tarzda ommaviy oferta doirasida Bank xizmatlarining buyurtmachisi xisoblangan shaxs.

1.4. **Bank** - “Trastbank” xususiy aksiyadorlik bankining Bosh ofisi va uning filiallari.

1.5. **Ommaviy oferta aksepti** - Mijoz tomonidan ushbu ommaviy ofertaning 1.7-bandida ko‘rsatilgan harakatlarni amalga oshirish yo‘li bilan ofertani to‘liq va so‘zsiz qabul qilish.

1.6. **Masofadan xizmat ko'rsatish ilovalari** (bundan buyon "MXKI" deb nomlanadi)
- Mijozga chet el valyutasini sotib olish va sotish uchun Arizalarni shakllantirish va Bankka yuborish imkonini beruvchi Bankning dasturiy ta'minot paketlari.

1.7. **Ommaviy ofertaga qo'shilish to'g'risida ariza** - CHet el valyutasini sotib olish va sotish uchun Arizalardagi (1-ilova, 2-ilova) Mijozning ommaviy ofertaga qo'shilishiga va uning shartlarini aksept qilishga bir ma'noli va avtomatik qat'iy ravishda roziligini nazarda tutuvchi yozma shart. Mijoz, ushbu Arizalarni imzolab, yoxud ushbu hujjatlarni MXKI orqali avtorizatsiya qilib, ommaviy oferta shartlarini avtomatik qat'iy ravishda akseptlaydi.

1.8. Bank chet el valyutasini sotib olish va sotish bo'yicha quyidagi xizmat turlarini taqdim etadi:

- chet el valyutasini sotib olish;
- chet el valyutasini sotish.

1.9. Mijozning Bankka topshiriqlarini nazarda tutuvchi hujjatlar:

- Chet el valyutasini sotib olish uchun ariza;
- Chet el valyutasini sotish uchun ariza.

2. BANK TOMONIDAN XIZMATLARNI TAQDIM ETISHNING UMUMIY SHARTLARI

2.1. Ushbu ommaviy oferta chet el valyutasining oldi-sotdisini amalga oshirishda Bank va Mijozning o'zaro aloqa qilish tartibi va shartlarini belgilab beradi.

2.2. Xizmat Chet el valyutasini sotib olish va sotish uchun arizalarni imzolash va berish yo'li bilan ushbu ommaviy ofertaning akseptini amalga oshirgan Bank Mijozlariga taqdim etiladi. Chet el valyutasini sotib olish va sotish uchun arizalarni imzolab, Mijoz Bank xizmatidan zaruritga qarab foydalanishga haqli.

2.3. Mijozga taqdim etiladigan xizmat faqat Chet el valyutasini sotib olish va sotish uchun arizalarni ijro etish bilan cheklanadi. Bank ushbu ommaviy oferta doirasida chet el valyutasini sotib olish/sotish yoki o'zga operatsiyalarning mazmuni yoki maqsadga muvofiqligi bo'yicha tavsiyalar yoki maslahatlar bermaydi.

2.4. Oldi-sotdi uchun valyuta summasi va turi ushbu ommaviy ofertaning ajralmas qismi hisoblangan har bir alohida Chet el valyutasini sotib olish va sotish uchun ariza bo'yicha Mijoz tomonidan belgilanadi va Shartnomaga taalluqli bo'lgan barcha kelib chiqadigan huquq va majburiyatlar bilan Shartnoma kuchiga ega.

2.5. Ushbu ommaviy oferta bo'yicha chet el valyutasining oldi-sotdisi bo'yicha xizmat ommaviy ofertaning amal qilish muddati davomida ber necha marta amalga oshirilishi mumkin.

2.6. Ushbu ommaviy oferta bo'yicha chet el valyutasining oldi-sotdisi bo'yicha xizmat ushbu ommaviy oferta, Chet el valyutasini sotib olish va sotish uchun arizalar va amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa kerakli hujjatlar asosida amalga oshiriladi.

3. CHET EL VALYUTASINI SOTISHNI AMALGA OSHIRISH TARTIBI

3.1. Mijoz chet el valyutasini Bank tomonidan bitimni amalga oshirish paytida o'rnatiladigan tijorat kursi bo'yicha sotadi.

3.2. Mijoz Arizani berishdan oldin sotish uchun etarli miqdorda chet el valyutasi pul mablag'larini Bankdagi o'z hisobvarag'iga o'tkazadi va zaxiralaydi.

3.3. Mijoz sotib olingan mablag'larni o'tkazish uchun Bankda milliy valyutada talab qilib olguncha depozit hisobvarag'iga ega bo'lishi shart.

3.4. Mijoz Bankka ushbu ommaviy ofertaning 2-ilovasiga muvofiq shakl bo'yicha arizani taqdim etadi.

3.5. Mijoz Arizada Mijoz chet el valyutasini sotishga rozi bo'lgan minimal kursni ko'rsatadi.

Bunda Azida qondiriladi, agar Bank tomonidan arizani ijro etish paytida o'rnatilgan kurs Arizada ko'rsatilgan minimal kursga teng/yuqori bo'lsa. Bu holda chet el valyutasini sotish Bank tomonidan bitimni amalga oshirish paytida o'rnatilgan tijorat kursi bo'yicha amalga oshiriladi. Ariza Bank tomonidan o'rnatilgan kurs Arizada ko'rsatilgan minimal kursga teng/yuqori bo'lmagunga qadar qondirilmasdan qolaveradi.

3.6. Ijobiy xulosalar qabul qilingan arizalar bo'yicha Bank va Mijoz o'rtasidagi barcha hisob-kitoblar keyingi bank ish kunidan kechikmagan muddatda amalga oshiriladi.

3.7. Mijoz Bankka taqdim etilgan Arizani qaytarib olish to'g'risida Bank tomonidan Arizani ijro etish jarayoni boshlanishdan oldin xabar beradi.

4. CHET EL VALYUTASINI SOTIB OLIISHNI AMALGA OSHIRISH TARTIBI

4.1. Mijoz chet el valyutasini Bank tomonidan bitimni amalga oshirish paytida o'rnatiladigan tijorat kursi bo'yicha sotib oladi.

4.2. Valyutaning nomi, summasi va maksimal kursi, sotib olinayotgan valyutadan foydalanish maqsadi, shuningdek valyuta operatsiyasini asoslovchi hujjatlar Arizada (1- ilovada) ko'rsatiladi.

4.3. Chet el valyutasini sotib olish bo'yicha operatsiyalar Mijozning qog'oz ko'rinishida yoki MXKI orqali taqdim etilgan Arizalari asosida Mijoz tomonidan chet el valyutasidan maqsadli foydalanish uchun amalga oshiriladi.

4.4. Chet el valyutasini sotib olishda Bank ushbu operatsiyalarning qonuniyligini tasdiqlovchi qo'shimcha hujjatlarni talab qilishga haqli.

4.5. Maxsus valyuta hisobvarag'iga o'tkazilgan mablag'lar qat'iy ravishda CHet el valyutasini sotib olish uchun arizada ko'rsatilgan maqsadlarda ishlatiladi.

4.6. Chet el valyutasini sotib olishda ushbu ommaviy ofertaning 4-bo'limiga asosan:

4.6.1. Mijoz sotib olingan chet el valyutasi o'tkaziladigan chet el valyutasida maxsus hisobvarag'ini (balans hisobvarag'i - 22614) ochish majburiyatini oladi.

4.6.2. Mijoz milliy valyutada maxsus hisobvarag'ini (balans hisobvarag'i - 22613) ochish va ushbu hisobvara orqali keyingi bank ish kunidan kechikmagan muddatda Bank tomonidan ijobiy xulosalar qabul qilingan Arizalar bo'yicha Bank bilan barcha hisob-kitoblarni amalga oshirish majburiyatini oladi.

Agar Mijoz belgilangan muddatda hisob-kitoblarni yakunlamasa, unda bitim bekor qilingan hisoblanadi.

Mijoz chet el valyutasini sotib olishda Bankka Arizani, zarur bo'lganda valyutani sotib olish uchun asosni (maqsadli foydalanishni) tasdiqlovchi hujjatlar nusxalarini taqdim etish majburiyatini oladi. Bunda, taqdim etilgan hujjatlar amaldagi qonunchilik va ushbu ommaviy ofertaning talablariga mos kelmagan taqdirda, Bank Mijozning Arizasini ijro etishni rad etishga haqli.

4.6.3. Mijoz sotib valyuta mablag'laridan mablag'lar valyuta hisobvarag'iga o'tkazilgan paytdan 7 (etti) bank ish kuni ichida foydalanish majburiyatini oladi. Mijoz tomonidan sotib olingan va uning maxsus valyuta hisobvarag'iga o'tkazilgan paytdan etti ish kun ichida foydalanmagan valyuta mablag'lari ushbu muddat tugaganidan so'ng keyingi bank kunidan kechiktirmasdan Bank tomonidan bitimni amalga oshirish paytida o'rnatilgan tijorat kursi bo'yicha Bankka qaytarib sotilishi lozim.

4.6.4. Ilgari maxsus valyuta hisobvarag'i hisobidan chiqarilgan va foydalanmagan, shuningdek boshqa sabablarga ko'ra yangidan kelib tushgan chet el valyutasi 3 (uch) bank ish

kuni ichida Bankka qaytarib sotilishi yoxud qat'iy ravishda Arizada ko'rsatilgan maqsadlarga foydalanilishi lozim.

4.6.5. Mijoz, ushbu ommaviy ofertaga qo'shilib, Bankka Arizada ko'rsatilgan sotib olingan chet el valyutasi ekvivalentida summani o'zining har qaysi hisobvaraqlaridan akseptsiz tartibda hisobdan chiqarishga o'zining so'zsiz va qaytarib olinmaydigan roziligini beradi.

4.6.6. Mijoz tomonidan ommaviy ofertaning 4.6.2-bandi shartlarini bajarmaganda, ushbu bilan Mijoz Bankka Bankning ehtimoldagi zararlarini (shu jumladan sotib olish va sotish o'rtasida kursdagi salbiy farqni, lekin u bilan cheklanmasdan) o'zining har qaysi hisobvaraqlaridan akseptsiz tartibda hisobdan chiqarishda so'zsiz va qaytarib olinmaydigan roziligini beradi.

4.6.7. Mijoz quyida sanab o'tilgan har qanday shartlar boshlangan taqdirda, Arizani bekor qilish majburiyatini oladi:

- Ariza bo'yicha sotib olish maqsadi o'zgarishi;
- vakolatli organlarning qarorlariga asosan hisobvaraqlar blokirovka qilinganda.

Bank bilan o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun pul mablag'lari bilan o'z vaqtida ta'minlanmaganda, Bank mustaqil tartibda Arizani bekor qilish huquqiga ega. YUqorida ko'rsatilgan holatlar paydo bo'lganida va Bank Mijoz tomonidan xabardor qilinmaganida, Bank Arizani akseptsiz tartibda bekor qilishga va valyuta mablag'larini qaytarib sotishni amalga oshirishga haqli.

4.7. Chet el valyutasini sotib olishda ushbu ommaviy ofertaning 4-bo'limiga muvofiq:

4.7.1. Bank Mijozning taqdim etilgan Arizasini konvertatsiya uchun Ariza qabul qilingan kundan keyingi bank ish kunidan kechikmagan muddatda ko'rib chiqish majburiyatini oladi.

4.7.2. Arizani amaldagi qonunchilikning o'rnatilgan talablariga nomuvfiqliligi sababli ijro etish mumkin emasligi taqdirda, Bank Mijozga bu to'g'risida yozma ravishda xabar berishi shart.

4.7.3. Bank Arizalarni ijro etish va Mijoz bilan Bank tomonidan ijobiy xulosalar qabul qilingan Arizalar bo'yicha barcha hisob-kitoblarni keyingi bank ish kunidan kechikmagan muddatda amalga oshirish majburiyatini oladi.

4.7.4. Bank ilgari Mijozning maxsus valyuta hisobvaraqlaridan hisobdan chiqarilgan va ushbu hisobvaraqlariga yangidan tushgan valyuta mablag'larini ulardan foydalanmaganlik

yoki 3 (uch) bank ish kuni ichida qaytarilishi sababli akseptsiz tartibda qayta sotilishini amalga oshiradi.

4.7.5. Bank Mijoz tomonidan akseptsiz tartibda sotib olingan chet el valyutasidan u Mijozning maxsus valyuta hisobvarag'iga o'tkazilgan paytdan 7 (etti) bank ish kuni ichida foydalanmagan taqdirda, valyuta mablag'larini qayta sotilishini amalga oshiradi. Sotish ushbu muddat tugaganidan so'ng keyingi bank ish kunidan kechiktirmasdan amalga oshirilishi kerak.

4.7.6. Chet el valyutasini sotib olish uchun ariza Mijozning yozma murojaati asosida bekor qilingan taqdirda, Bank 4.6.7-bandga muvofiq choralar ko'radi.

4.7.7. Sotib olingan valyuta mablag'larini to'lash uchun Mijozning pul mablag'lari etarli bo'lmagan taqdirda, Bank Arizada ko'rsatilgan sotib olingan chet el valyutasi ekvivalentida summani Mijozning har qaysi hisobvaraqlaridan akseptsiz tartibda hisobdan chiqarish huquqini o'zida saqlab qoladi.

5. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

5.1. Bank chet el valyutasining oldi-sotdisi bo'yicha xizmatlarni ijro etishdan voz kechish huquqini o'zida saqlab qoladi, agar Mijoz tomonidan Arizalar noto'g'ri to'ldirilgan bo'lsa.

5.2. Bank ushbu bilan Mijozning aybi bo'yicha Arizalar kontekstida paydo bo'lgan xatoliklar va bosma xatolar uchun javobgar bo'lmaydi. Arizalarda ko'rsatilgan ma'lumotlarning ishonchliligi uchun Mijoz javobgar bo'ladi.

5.3. Bank bitimning boshqa ishtirokchilarining o'z vatida va/yoki lozim darajada bajarilmagan harakatlari uchun, shuningdek bitim O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida o'rnatilgan tartibda tuzilmagan taqdirda javobgar bo'lmaydi.

5.4. Bank ushbu ommaviy ofertada nazarda tutilgan majburiyatlarni o'z vaqtida va to'liq hajmda bajarish majburiyatini oladi.

5.5. Bank Mijoz tomonidan o'tkazilayotgan operatsiyalarga taalluqli bo'lgan masalalar bo'yicha kerakli tushuntirishlar, hujjatlar va ma'lumotlar olish huquqiga ega.

5.6. Bank har qaysi Arizani qisman yoki to'liq ijro etishdan voz kechish huquqiga ega.

5.7. Bank quyidagi hollarda xizmat taqdim etilishini bir tomonlama to'xtatib turish huquqiga ega:

A) Mijoz tomonidan Chet el valyutasini sotib olish va sotish uchun arizalar noto'g'ri to'ldirilganda;

B) Mijoz ushbu ommaviy ofertada nazarda tutilgan o'z majburiyatlarini lozim darajada bajarmaganda;

V) Bank tomonidan ommaviy oferta yoki O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi shartlariga mos kelmaydigan operatsiyalar aniqlanganida;

G) Mijoz tomonidan ushbu ommaviy ofertaning qo'shimcha shartlari va o'zgartirishlari qabul qilinmaganida;

D) Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirish jumlasiga kiritilishi mumkin bo'lgan o'tkazayotgan operatsiyalarda shubha mavjud bo'lganida.

5.8. Bank tariflarni o'zgartirish, ushbu oferta shartlariga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish huquqiga ega. Bunda Bank Mijozni bu o'zgartirishlar to'g'risida Bankning bo'linmalaridagi stendlarda va Bankning www.trustbank.uz Veb-saytida kiritilayotgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar to'g'risida axborotni joylashtirish yo'li bilan ular kuchga kirgunga qadar 10 (o'n) bank ish kunidan kechiktirmasdan xabar beradi.

5.9. Mijozdan Bank tomonidan tariflarga va ushbu ommaviy oferta shartlariga kiritilgan o'zgartirishlar/qo'shimchalarga nisbatan e'tirozlar 10 kun muddat ichida kelib tushmagan taqdirda, ushbu o'zgartirishlar/qo'shimchalar Mijoz tomonidan qabul qilingan hisoblanadi. Mijoz tariflarga va ushbu ommaviy oferta shartlariga kiritilgan o'zgartirishlar yoki qo'shimchalarga norozi bo'lgan taqdirda, Mijoz bunday o'zgartirishlar/qo'shimchalar kuchga kirgunga qadar yozma xabarnoma yuborish yo'li bilan SHartnomani bekor qilishga haqli.

5.10. Mijoz u tomonidan o'tkazilayotgan operatsiyalarga taalluqli bo'lgan masalalar bo'yicha kerakli tushuntirishlar, hujjatlar va ma'lumotlarni Bankning talabiga ko'ra taqdim etishi shart.

5.11. Mijoz ushbu ommaviy ofertada nazarda tutilgan tartibda Banking amaldagi tariflariga muvofiq Bank xizmatlarini to'lashi, buning uchun hisobvaraqlar)da pul mablag'larining (sotilayotgan valyutada/milliy valyutada) sotib olinayotgan valyuta uchun etarlicha qoldig'ini saqlab turishi shart.

5.12. Mijoz Bankka zaruriyatga qarab Chet el valyutasini sotib olish va sotish uchun Arizalarni (1-ilova, 2-ilova) taqdim etib, Bank xizmatlaridan foydalanish huquqiga ega.

6. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

6.1. Tomonlardan biri o'z majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, aybdor tomon boshqa tomonga etkazilgan zararni to'lab beradi, shuningdek O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida nazarda tutilgan tartibda javobgar bo'ladi.

7. FORS-MAJOR

7.1. Tomonlar ushbu ommaviy ofertadan kelib chiqadigan o'z majburiyatlarini bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik uchun javobgar bo'lmaydilar, agar ularni engib bo'lmas kuch holatlari (tabiiy ofatlar, ish tashlashlar, fuqarolik tartibsizliklar, urushlar yoki Tomonlarning irodasiga bog'liq bo'lmagan, shu jumladan O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi o'zgarganligi yoxud O'zbekiston Respublikasi Markazi banki tomonidan hujjatlar/ko'rsatmalar chiqarilishi/qabul qilinishi sababli har qanday boshqa holatlar) boshlanganligi sababli lozim darajada bajarish imkoni bo'lmasa.

7.2. Bank quyidagi hollarda javobgar bo'lmaydi:

7.2.1. Banklararo elektron to'lovlar tizimidagi ehtimoldagi to'xtalishlarda;

7.2.2. Bank yoki Mijozning hisobvaraqlari qonunchilikda o'rnatilgan tartibda xatlanganda va/yoki ular bo'yicha operatsiyalar to'xtatilganda va/yoki ishga solmay to'xtatib qo'yilganda;

7.2.3. Bank tomonidan ommaviy oferta bo'yicha o'z majburiyatlarini Banka bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra va fors-major holatlari boshlanganida bajarish imkoni bo'lmaganida;

7.2.4. Bank unga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra Arizalar qondirilmaganligi uchun javobgar bo'lmaydi.

7.2.5. Mijoz, Chet el valyutasini sotib olish va sotish uchun arizalarni (1-ilova, 2-ilova) imzolab, yoki ushbu Arizalarni MXKI da avtorizatsiya qilib, Bankka Mijozning Bankda ochilgan hisobvaraqlaridan chet el valyutasini sotib olish va sotishni amalga oshirish uchun kerakli summani Bankning tasdiqlangan tariflariga muvofiq muvofiq Mijozning hech qanday qo'shimcha roziligisiz hisobdan chiqarash huquqini taqdim etadi.

8. MAXFIYLIK

8.1. Tomonlar ommaviy ofertaga muvofiq ularga ushbu ofertani tuzish va ijro etish natijasida ma'lum bo'lib qolgan maxfiy axborotni sir saqlash va uni uchinchi shaxslarga har qanday usulda oshkor qilmaslik maburiyatini oladilar.

8.2. Tomon ushbu ofertaga qo'shilishdan oldin olgan axborot, boshqa manbalardan qonuniy metodlar bilan olingan axborot, shuningdek Tomonlarning amaldagi qonunchiligiga muvofiq maxfiyga aloqador bo'lmaydigan axborot maxfiy deb tan olinmaydi.

8.3. Maxfiy axborotni talab qilish huquqi qonun bilan taqdim etilgan vakolatli davlat organining so'rovnomasiga ko'ra maxfiy axborotni taqdim etish yoki oshkor qilish zaruriyati paydo bo'lgan taqdirda, Tomon ushbu ushbu axborotni taqdim etgan Tomonga yozma ravishda yoki og'zaki xabar berishi shat.

8.4. Tomonlar quyidagilarga majbur:

8.4.1. Maxfiy axborot saqlanilishini ta'minlash, bunda maxfiy axborotdan uchinchi shaxslar ruxsat etilmagan foydalanish imkonini istisno qilish; Maxfiy axborotni uchinchi shaxslarga ham to'liq hajmda, ham qisman bermaslik;

8.4.2. Maxfiy axborotni ommaviy axborot vositalarida chop etmaslik va maxfiy axborot mazmunini cheklanmagan shaxslar doirasiga har qanday boshqa usulda oshkor qilmaslik;

8.4.3. Maxfiy axborotdan foydalanish imkonini faqat Tomonlarning lozim darajada vakolatlangan shaxslarga ta'minlash;

8.4.4. Boshqa Tomonning ushbu ommaviy oferta bo'yicha olingan maxfiy axborotdan foydalanish imkonini olgan shaxslari hisobini yuritish;

8.4.5. Tomonlarning qonunchiligida nazarda tutilgan maxfiy axborotni himoya qilish bo'yicha o'zga majburiyatlarni bajarish.

9. BOSHQA SHARTLAR

9.1. Ommaviy oferta imzolangan va Bankka CHet el valyutasini sotib olish va sotish uchun Arizalar taqdim etilgan paytdan yoki ushbu Arizalar MXKIda avtorizatsiya qilingan paytdan kuchga kiradi.

9.2. Ommaviy ofertaning amal qilish muddati cheklanmagan.

9.3. Har safar Bankka Chet el valyutasini sotib olish va sotish uchun Arizalar taqdim etilganda yoki Arizalar MXKIda avtorizatsiya qilinganda Mijoz ushbu ommaviy ofertaga qo'shiladi.

9.4. Ushbu ommaviy oferta quyidagi hollarda bekor qilinishi lozim:

- Mijoz Bank tomonidan tariflarga va oferta shartlariga kiritilgan o'zgartirishlar va qo'shimchalarni rad etgan taqdirda;

- O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida o'rnatilgan tartibda.

9.5. Ushbu ommaviy oferta kuchga kirgan paytdan Tomanlar o'rtasidagi ayirboshlash bo'yicha xizmatlarni ko'rsatish uchun barcha oldingi kelishuvlar va shartnomalar bekor qilingan hisoblanadi.

9.6. Tomonlar ular o'rtasidagi kelishmovchiliklarni muzokaralar yo'li bilan hal etishga barcha choralar ko'radilar. Kelishuvga erishilmaganda, ushbu ommaviy ofertadan kelib chiqadigan barcha nizolar Iqtisodiy sudda hal etiladi.

9.7. Hech bir Tomon ushbu ommaviy oferta bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini bunga boshqa Tomonning oldindan yozma rozilgisiz berish yoki qayta topshirish huquqiga ega emas.

9.8. Ushbu ommaviy ofertada bevosita tartibga solinmagan boshqa masalalarda Tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga amal qiladilar.